

ИЖТИМОЙИ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

N°1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраҳон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Сеитов Азамат, Рубенян Ангелина ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КУЛЬТУРНЫХ БРЕНДОВ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ КЫРГЫЗСТАНА С УЧЕТОМ ФАКТОРА УЗБЕКСКОЙ ДИАСПОРЫ.....	5
2. Alikariyev Nuriddin OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI....	12
3. Sabirova Umida OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA SOTSIOLOGIK MONITORINGNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	21
4. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLARNING MODERNIZATSIYALASHUV VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	30
5. Dulanbo'yeva Oygul, Xolov Abduqodir AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA KITOB MUTOLAAASI IJTIMOIIY DETERMINANTLARINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI.....	37
6. Tolipov Abdug'affor MDH MAMLAKATLARIDA VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLAR IJTIMOIY PROFILAKTIKASINING AMALGA OSHIRISH AMALIYOTI.....	44
7. Alikariyeva A'loxon RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH MUAMMOLARI.....	53
8. Tajieva Dilnoza XOTIN-QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI "INSON-JAMIYAT-DAVLAT" HAMKORLIGIDA OSHIRISH.....	61
9. Nosirova Marguba THE IMPORTANCE OF NEW SKILLS IN IMPROVING WOMEN'S EMPLOYMENT AND ENTREPRENEURSHIP (UNTIL 2030).....	68
10. Kirgizbayev Turgun O'ZBEKISTON OMMAVIIY DIPLOMATIYASI MARKAZIIY OSIYODA ISHONCHNI O'RNATISH VOSITASI SIFATIDA.....	74
11. Asanov Xodjaxmet KOGNITIV FANNING SUN'IY INTELLEKT RIVOJIGA TA'SIRIDA IJTIMOIIY SIYOSATNING O'RNI.....	80
12. Kirgizbayev Turgun MARKAZIIY OSIYODA MA'NAVIIY-SIYOSIIY BARQAROR MUHITNI TA'MINLASHNING AHAMIYATI.....	92

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Dulanbo'yeva Oygul,

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti

Sotsiologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: oyguldulanboyeva@mail.ru

Xolov Abduqodir,

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti

Sotsiologiya kafedrasida 1-bocqich magistri

e-mail: abduqodirxolov62@gmail.com

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA KITOB MUTOLAAASI IJTIMOIIY DETERMINANTLARINING NAMOYON BO'LIH SHAKLLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18839950>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada, kitob mutolaaasining ijtimoiy determenantlari ilmiy-nazariy xulosalar natijasida keltirib o'tiladi. Ayniqsa, mutolaaaning nafaqat madaniy, ma'naviy jihatlari balki, uning ijtimoiy stratifikatsion, status va rol xususiyatlariga ham diqqat qaratiladi. Qolaversa, maqola doirasida mutolaaaning makro, mezo va mikro sotsial darajasidagi ijtimoiy ahamiyatiga ham, urg'u beriladi. Shuningdek, mutolaaaning ruxsat etilgan va taqiqlangan, ommaviy va elitar, yosh va kasbiy guruhlarga yo'naltirilgan tasniflari zamonaviy tadqiqodchilar mulohazalaridan kelib chiqan holda, keltirib o'tiladi. Bundan tashqari, mutolaaaning mafkuraviy, majburlovchi, kommunikativ, ko'ngil ochish, hamda bo'sh vaqtni o'tkazishga doir funksiyalari uning determenantlari sifatida namoyon bo'lish shakli ekanligi ham ilmiy-nazariy xulosalar asosida ochib beriladi. Shuningdek, mazkur maqolada ommaviy va xos mutolaaaning sotsial xususiyatlari ilmiy-nazariy xulosalarga asoslangan holda ochib berilgan. Shuningdek, ommaviy va elitar mutolaaaning o'zaro tafovutlari san'at asarlarining omma va xos san'atga ajralishidan kelib chiqishi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, maqolada mutolaaa madaniyatining sotsiologik xususiyatlari ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mutolaaa, ijtimoiy determenant, stratifikatsiya, makro daraja, mezo-mutolaaa, elitar adabiyot, omma adabiyoti, ijtimoiy funktsiya, mafkura, sotsial status.

Дуланбаева Ойгул,

Старший преподаватель кафедры Социологии

Национального университета Узбекистана

имени Мирзо Улугбека,

доктор философии социологическим наукам (PhD)

e-mail: oyguldulanboyeva@mail.ru

Холов Абдукодир,

магистрант 1-курса кафедры Социологии

Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека.
e-mail: abduqodirxolov62@gmail.com

СОЦИАЛЬНЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ КНИЖНОГО ЧТЕНИЯ И ФОРМЫ ИХ ПРОЯВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАТИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены социальные детерминанты чтения книг на основе научных и теоретических выводов. В частности, внимание уделяется не только культурным и духовным аспектам чтения, но и его социальной стратификации, статусу и ролевым характеристикам. Кроме того, в статье также подчеркивается социальное значение чтения на макро-, мезо- и микроуровне. Также на основе суждений современных исследователей рассматриваются классификации чтения как разрешённого и запрещённого, массового и элитарного, а также ориентированного на различные возрастные и профессиональные группы. Кроме того, на основе научных и теоретических выводов показано, что идеологическая, принудительная, коммуникативная, развлекательная и досуговая функции чтения являются формой его проявления как детерминанты. В статье раскрываются социальные характеристики массового и специфического чтения на основе научных и теоретических выводов. Показано, что различия между массовым и элитарным чтением возникают из разделения произведений искусства на массовое и специфическое искусство. В статье также представлены социологические характеристики культуры чтения.

Ключевые слова: чтение, социальные детерминанты, стратификация, макроуровень, мезочтение, элитарная литература, массовая литература, социальная функция, идеология, социальный статус.

Dulanbayeva Oygul,

Senior Lecturer at the Department of Sociology
of the Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in Sociological Sciences (PhD)
e-mail: oyguldulanboyeva@mail.ru

Kholov Abdukodir,

first year undergraduate student at the Department
of Sociology of the Mirzo Ulugbek
National University of Uzbekistan
e-mail: abduqodirxolov62@gmail.com

FORMS OF MANIFESTATION OF SOCIAL DETERMINANTS OF READING IN AN INFORMED SOCIETY

ABSTRACT

In this article, social determinants of book reading are presented as a result of scientific and theoretical conclusions. Particular attention is paid not only to the cultural and spiritual aspects of reading, but also to its social stratification, status and role features. In addition, the article also emphasizes the social significance of reading at the macro-, meso- and microsocial levels. Classifications of permitted and prohibited reading are also provided, focused on mass and elite, young and professional groups, based on the opinions of modern researchers. In addition, based on scientific and theoretical findings, it was revealed that its determinants are the ideological, compulsory, communicative, entertaining and leisure functions of reading.

Key words. Reading, social determinant, stratification, macro level, meso reading, elite literature, mass literature, social function, ideology, social status.

KIRISH

Ma'lumki, kitob mutolaaasi qadim qadimdan inson uchun bilim olish, ma'lumotga ega bo'lish manbai sifatida qabul qilinadi. Bu esa, tabiiyki, mutolaaaning ijtimoiy fenomen ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, kishilik jamiyati tarixida fan va texnologiyalarining taraqqiy etib borishi davrida, kitob mutolaasi nafaqat bilim olish yoki, bo'sh vaqtni o'tkazish balki, jamiyatda shaxsning sotsial statuslari, stratifikatsion o'rnini belgilash omili sifatida ham, namoyon bo'lmoqda. Qolaversa, kitob mutolaasining avvalgi fundamental, aniqrog'i, individual, shaxsiy jihatlari bilan birgalikda makrosotsial darajada ham, ahamiyati o'zgarib borayotganligini ifodalaydi [1]. Sotsiologiya doirasida ushbu nuqtaiy nazardan mutolaaning inqirozli, noodatiy vaziyatlarda ijtimoiy guruhlariga ta'sirini o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada nazariy metodologik asos sifatida, xorijiy olimlardan: A.N.Vaneevning "Kitobxonlik madaniyati tarixi" ^[1], N.A.Stefanovanning "Mutolaaa sotsiomodelining ekzistensial jihatlari", L.Gudkovning "Ziyolilik inqirozi va ommaviy mutolaaa" [2] kabi ishlari, shuningdek, o'zbek olimlaridan: A.A.Umarovning "Jamiyatda mutolaaa madaniyatini shakllantirish va kutubxonachilik muammolari" [3], shuningdek, A.Xolbekov [4] kabi olimlarning tadqiqotlaridan foydalanilgan. Qolaversa, maqolada, analiz va sintez, retrospektiv va qiyosiy tahlil singari umum-ilmiy metodlar qo'llanilgan.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy guruhlar va jamiyat xulq-atvorini shakllanishida kitob mutolaasini ta'sirini o'rganish zamonaviy fan sohalarining kam o'rganilgan va munozarali muammolaridan biri bo'lib, u shaxs tanlovidan tashqari, boshqa sotsial jihatlarni ham, o'z ichiga oladi. Misol uchun, mutolaaning etalonlik xususiyati, mutolaada liderlarga taqlid qilish muammolari. Shunday bo'lsada, kitob mutolaasining ijtimoiy determenantlarini namoyon bo'lishi quydagi bir qator jihatlari bilan tavsiflanadi:

1. Ruqsat etilgan adabiyotlar va ruqsat etilmagan adabiyotlar.
2. Elitar ya'ni, xos adabiyotlar va ommaviy, xalqchil adabiyotlar.
3. Turli ijtimoiy guruhlar, masalan: bolalar, o'smirlar, yoshlar, ayollar va boshqa guruhlariga qaratilgan adabiyotlar.
- 4 Turli kasblarga yo'naltirilgan adabiyotlar [5].

Yuqoridagi jihatlardan kelib chiqib, zamonaviy tadqiqodchilar "mezomutolaa" [6] ya'ni, mutolaaning o'rta xususiyatini aks etuvchi tushunchani qo'llaydilar. Bu individual va makroiijtimoiy darajalar o'rtasidagi oraliq turbulent qatlam bo'lib, o'qishni individual jarayon sifatida ham, ommaviy o'qish tizimi sifatida ham emas, balki guruh qadriyatlari tizimi sifatida tavsiflaydi.

Ijtimoiy o'qish tizimini tanlov nuqtasida to'qnashadigan ikkita qarama-qarshi vertikal oqim, to'lqinlar sifatida tasvirlash mumkin [7]. Bu o'rinda mutolaa namunalar jamiyatning turli guruhlarida tabaqalashtirilgan holda taqsimlanadi va qo'llaniladi. Bu jarayon jamiyat va undagi hayot ko'nikmalari haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Bular ijtimoiy rollar, ehtimoliy umumlashtirilgan hamkorlar va umuman ijtimoiy tartib, uning shartlari va chegaralari, ular ustida fikr yuritish imkoniyatlari, hamda ularni (subyektiv vositachilik orqali amaliy) o'zgartirish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Shaxs ushbu vositalar yordamida shartli va shu sababli o'zi nazorat qiladigan shaklda quyidagilar haqida tasavvur hosil qiladi: jamiyat tuzilishi, uni tashkil etuvchi asosiy guruhlar va ularni ifodalovchi ramzlar; ijtimoiy me'yorlarni buzganlik uchun ijtimoiy jazolarning qattiqligi darajasi va ko'lami; voqelikda doim ham uchratish imkoni bo'lmagan yoki uchratishni xohlamaydigan, ammo uning umumiy ma'naviy tuzilmalarida muhim rol o'ynaydigan nufuzli shaxslar va muhim hayotiy vaziyatlardir [8].

Ushbu "tavsiya etilgan mutolaa"ning maqsadi jamiyat uchun foydali bo'lgan guruhiiy va shaxsiy tanlovni asoslovchi hamda rag'batlantiruvchi nufuzli mualliflar va matnlar doirasini taqdim etishdir. O'qishning bu qatlami jamiyatning muvozanatini va boshqarilishini saqlash uchun barqarorlashtiruvchi, mustahkamlovchi va konservativ vazifani bajaradi. Bu o'qish quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- 1 Majburiy mutolaa. Unga ko'ra, maktab darsliklarida ko'rsatiladigan adabiyotlar.

2. Turli darajadagi davlat tuzilmalari tomonidan moliyalashtiriladigan va to'ldiriladigan, belgilangan mezonlar bo'yicha tanlab olingan matnlar to'plamini jamoatchilik foydalanishiga taklif etadigan davlat kutubxonalari taklif etadigan adabiyotlarni mutolaa qilish.

3. Muayyan kitoblarni ommaviy ravishda ko'paytirish va targ'ib qilishda (turli guruhlarining "ramziy kapitallari"ni taqsimlash va takror ishlab chiqarish mexanizmi) [9].

Bu darajada o'qish madaniyatining tartibli tarqalishi dunyo va hayot faoliyati tamoyillarini tubdan o'zgartirish hamda jamiyatda "bilimli" deb ataladigan insonlarning paydo bo'lishi vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu insonlarning vazifalariga bilim olish, tanlash va maqsadga muvofiq harakat usullarini asoslash kiradi. Shunday qilib, yakka tartibdagi o'qish allaqachon kashf etilgan haqiqatlarni o'zlashtirish jarayoniga aylanadi. Bilimli kishilar doirasi nufuzli shaxslarga (tirik yoki marhum, afsonaviy maktab asoschilari yoki yo'l boshchilarga) va ularning bilimlarini yakka tartibda o'qib, o'zlashtiruvchi boshqa kishilarga bo'linadi.

Shu bilan birga, tanlov jarayoni va natijasiga jamiyatning yuqori maqomli qatlamlaridan quyi qatlamlariga tarqaladigan ikkinchi, pastga tushuvchi kitobxonlik oqimi ham ta'sir ko'rsatadi. Bu oqimning asosiy, ammo eng tor qatlamini "elita mutolaaasi" tashkil etadi. Uni siyosiy, madaniy, iqtisodiy elitalar, OAV elitasi mutolaaasiga ajratish mumkin [10].

Bu mutolaa jamiyatning boshqaruvchi kichik tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, ijtimoiy tizimni rivojlantirish strategiyasini tanlash va amalga oshirishning ichki omili bo'lib xizmat qiladi, chunki u boshqaruvchilar, yetakchilarning individual ongini shakllantiradi. Ushbu qatlamning mavjudligi har bir yangi avlodda o'qishning asl elitar an'anasini tanlanganlar uchun muqaddas "yopiq" bilim sifatida qayta tiklaydi va qo'llab-quvvatlaydi.

Mazkur mutolaa qatlami hokimiyat qarorlarini amalga oshirish sifatiga, strategiyani tanlashga va ularni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Veberning byurokratiya tushunchasidan kelib chiqqan holda, bu mutolaa qatlamining asosiy qadriyat mo'ljallari uning barqarorligi, bashorat qilinishi va ijtimoiy vazifalarni hal qilishda boshqaruvning eng oqilona shakllarini tanlash maqsadida ijtimoiy o'zaro ta'sirni tartibga solishni ta'minlash, ijtimoiy hayotni tartibga solishning o'z tizimini joriy etishda namoyon bo'ladi [12].

Insoniyat tafakkur tarixidan ma'lumki, aksariyat mutafakkirlar mutolaa hodisasini ikki turga, aniqrog'i, omma va xos mutolaa shakliga ajratadilar. Bu ajratish avvalambor umuman san'atning omma va xos doiralariga bo'linishi bilan shartlanadi. Zotan san'at dunyoni idrok qilishning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Bu ma'noda u jamiyatda ustun bo'lgan dunyo qarashiga bog'liq va o'zi ham unga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Olam manzarasi badiiy axborotning negizini tashkil etib, san'at mazmuniga singib ketadi va uni o'ziga xos tarzda shakllantiradi [13]. Olam manzarasi san'at asarini idrok etishning muayyan yo'lini ham belgilaydi. Badiiy ong orqali olam manzarasi badiiy madaniyatning tuzilmaviy tizimiga bilvosita ta'sir o'tkazadi. San'at olamining hozirgi davrdagi differentsiatsiyasi ma'lum ma'noda bir paytlar sodda va tartibli bo'lgan koinot manzarasining murakkablashuvi va nomutanosiblashuvi oqibati sanaladi.

San'at tarixini durdonalar tarixi sifatida tasvirlash odat tusiga kirgan. Biroq sotsiologik nuqtai nazardan bu maqbul emas: jamiyatning badiiy hayoti faqat cho'qqidagi yutuqlardan iborat emas [14]. San'at barcha ijtimoiy qatlamlarning talab va didlariga juda moslashuvchan tarzda javob beradi hamda kundalik ongning ko'plab ehtiyojlarini qondirish, turmush va bo'sh vaqtni badiiy shakllar bilan boyitishga qaratilgan asarlarni yaratadi. Bu ehtiyojlar bir-birini almashtiruvchi etnik xulq-atvor stereotiplari, an'analar, turmush tarzi va boshqalarga bog'liq. Durdonalar – madaniyatning "oltin xazinasini" bo'lib, ustuvor yo'nalishlar va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarning ma'lum darajada davomiyliigi bilan tavsiflanadi. Ommaviy san'at bunday davomiylikka ega emas. U funksional bo'lib, ijtimoiy kayfiyatlarning ustunligi va o'zgarishiga moslashuvchan javob beradi, an'anaviy ijtimoiy-psixologik qarashlarni, odatiy ramziylikni qo'llab-quvvatlaydi, ijtimoiy va shaxsiy hayot stereotiplarining takrorlanishini ta'minlaydi. Ammo, ommaviy va yuksak san'at o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Ommaviy san'at durdona asarlar paydo bo'lishining asosi, poydevoridir. Agar san'at asariga faqat estetik mezonlar (til yangiligi, o'ziga xosligi, muallif uslubi va boshqalar) nuqtai nazaridan emas, balki unda o'z davrining ijtimoiy psixologiyasi hodisasini ko'rishga harakat qilinsa, u (san'at asari) tasodifiy yoki ahamiyatsiz bo'lib

ko‘rinmaydi.

San‘at azaldan elitar ya‘ni , xos doiralarga mo‘ljallangan va ommaviy turlarga bo‘linib kelgan. Elitar san‘at nozik didli bilimdonlar uchun yaratiladi. Uning hayotiyligi yorqin ta’sirlarga bog‘liq emas. U dunyoni uning tanish va notanish, noaniq tomonlarining uyg‘unligida chuqur anglashga qaratilgan [15]. Bunday turdagi asarning mazmunini oldindan aytib bo‘lmaydi, u xotirada ko‘plab assotsiatsiyalar, nozikliklar va ramzlarni jamlashni talab etadi. O‘qib bo‘lingach, ko‘plab muammolar yechilmay qolishi mumkin, bu esa yangi muammolar va unga yechimlarni keltirib chiqaradi.

Ommaviy san‘at oddiy o‘quvchi, tinglovchi va tomoshabinlarga mo‘ljallangan. Ommaviy aloqa vositalari (kino, televideniye, radio) paydo bo‘lishi bilan u keng tarqaldi. Bu vositalar tobora ko‘proq odamlarga madaniyatga qo‘shilish imkonini bermoqda. Natijada, ommaviy adabiyotning ulkan tirajlari va ommaviy auditoriyaning didini o‘rganish zarurati paydo bo‘ldi.

Ommaviy san‘at asarlari folklor, mifologik va xalq og‘zaki ijodi na‘munalari bilan chambarchas bog‘liq. Barqaror ommaviy janrlar asosida ma‘lum arxetiplarga borib taqaladigan va umumahamiyatli formulalar, badiiy universalialarni o‘z ichiga olgan syujet tuzilmalari yotadi [16]. Bunday syujet qurilmalarini elitar san‘atda ham ko‘rish mumkin, ammo u yerda ular ommaviy san‘atdagi kabi pasaytirilmagan, balki yuksaltirilgan.

Sotsiologlar ommaviy o‘quvchilarga yoqadigan mavzu va syujetlarni quyidagicha tavsiflaydilar. Misol uchun, Rossiyadagi dastlabki o‘qish tadqiqotchilari ham dehqonlarga romanlarda quyidagilar yoqishini ta’kidlaganlar: vatanparvarlik, dinga, podshohga, vatanga muhabbat, burchga sadoqat, qahramonlik, jasorat, urushda mardlik, rus qahramonligi va hokazo [17]. Ommaviy san‘at asarlari tuzilishining bir xilligi qadimiy maishiy, diniy yoki boshqa faoliyatga borib taqaladi. Bunday kuzatishlar bir turdagi hikoyalarning tarixiy ildizlarini o‘rganish va jamoaviy fantaziyalar rivojlanishidagi ma‘lum qonuniyatlarni aniqlash asosida amalga oshirildi. Yuqori darajadagi standartlashtirish tabiiy ehtiyojidan kelib chiqadi.

Ommaviy san‘at – eskapistik xususiyatga ega, ya‘ni real dunyo ziddiyatlari va qarama-qarshiliklarini chuqur tahlil qilishdan qochadigan san‘atdir. Bundan tashqari, tanish tuzilmalar kutish hissini uyg‘otadi, u oqlanganda esa tanish shakllarni anglashdan qoniqish va qulaylik hissi paydo bo‘ladi. Rasmiylik tamoyili mavzuning badiiy variatsiyasi bilan uyg‘unlashadi. O‘ziga xoslik, agar u kutilgan tajribalarni sezilarli darajada o‘zgartirmasa, qabul qilinadi. Individual talqin noyob va takrorlanmas xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. Stereotiplarni jonlantirish usullari mavjud: qahramonga stereotipga zid xususiyatlarni kiritish. Variantlar syujetni buzmasligi kerak. Bu yangi shaklning ma‘lum bir davrdan tashqariga chiqishi va keyingi avlodlarning unga bo‘lgan qiziqishini saqlab qolishi orqali namoyon bo‘ladi.

Ommaviy san‘at asarlari darhol va yorqin hissiy kechinmalarni uyg‘otadi. Biroq ommaviy san‘atni past sifatli, deb bo‘lmaydi. U shunchaki boshqa vazifalarni bajaradi. Qolipli hikoya noaniqlikdan xayoliy, ammo baribir aniqlikka o‘tishga yordam beradi. San‘at olamidagi hayot o‘zining yashirin sabablarini anglashni talab qilmaydi, ularni niqoblaydi yoki yashirin istaklarni tan olishga to‘sqinlik qiluvchi to‘siqlarni kuchaytiradi. Ommaviy janrlar ko‘plab muammolarning hal etilmasligi va noaniqligini badiiy modellashirish bilan almashtirib, mavjud ijtimoiy yo‘nalishlar va qarashlarni mustahkamlaydi.

Elitar adabiyot esa ko‘pincha ommaviy o‘quvchi uchun ma‘nosiz so‘zlar to‘plami bo‘lib tuyuladi. Uning elitarligi ozchilik uchun mo‘ljallanganligida emas, balki ko‘pchilik uchun tushunarsizligidadir. Bu yerda muammo ikki yoqlama mazmunga ega. Chunki, ommaviy kitobxon avvalo estetik vazifalarni hal etuvchi asarlardan yuz o‘girdi (ularni hal etmay turib, eng muhim hayotiy muammolarni chuqur o‘rganib bo‘lmashligini tushunmadi). Ikkinchi tomondan, “ilg‘or” yozuvchi omma uchun tushunarli bo‘lishni o‘ziga or deb biladi. Bunday sharoitda hatto “haqiqiylik”ning ko‘pchilik o‘zini “oliy”ga daxldor deb hisoblaydigan yashirin mezonini qaror topdi: qanchalik tushunarsiz bo‘lsa, shunchalik mukammal hisoblanadi. Ko‘pchilik uchun haqiqiy adabiyot, birinchidan, juda zerikarli (maktab xotiralaridan), ikkinchidan, mutlaqo hayotdan yiroq, tushunarsiz narsadir.

Yana bir muammo jamiyatda shaxs rivojlanishining ideal namunalarini “ijobiy

qaxramonlar”ni tasvirlovchi va shu orqali hayot yo’lini tanlashga ta’sir ko’rsatadigan dunyoqarashni shakilantirish ham, aynan mutolaa jarayoni bilan bog’liq sanaladi. Odatda, barqaror jamiyat bunday namunalarning umumiy tipik majmuasini “maktabda majburiy ta’lim” tizimi orqali belgilab beradi. Biroq, zamonaviy jamiyat sharoitida aniqrog’i, ijtimoiy institutlar va munosabatlarning transformatsiyalashuv davrida bu kabi ideallar o’z funksiyasini bajara olmaydi. Ushbu vaziyatda, tavsiya etilgan mutolaa namunalarning funksiya bajarmasligi yoki, ularning mazmun jihatdan qarama qarshiligi ayniqsa, yoshlar o’rtasida qadriyat mo’ljallarining yo’qolishiga sabab bo’ladi. Shu sababli, o’z shaxsiyatida barqaror va faol harakat qiluvchi qahramonlarni o’qishda o’z-o’zidan mustaqil izlanish boshlanadi. Aynan shu bilan bir qator sotsiologlar yosh respondentlarning adabiy asarlarga bo’lgan qiziqishini bog’laydilar. Bu asarlar kutilmagan, ko’pincha xavfli va halokatli vaziyatlarda faol harakat qilishning turli xil, doimiy ko’payib boruvchi mavzuli va muammoli namunalarni, hayotiy muvaffaqiyat modellari, umuman ijtimoiy layoqatlilik sinovlarini aks ettiradi, muhokama qiladi va oqilona tushuntiradi. Ular ko’pincha bu g’oyalarni utopik kayfiyatga (sarguzasht romani, detektiv, ilmiy fantastika) proyeksiya qiladilar.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan muloxazalarni umumlashtirib, quydagi xulosalarni keltirish mumkin:

- ✓ Kitob mutolaasining ijtimoiy determinantlari makrosotsiologik va individual hamda mutolaaning o’rta darajasida namoyon bo’ladi.
- ✓ Aynan mutolaaning o’rta darajasi xususan, “mezomutolaa” fenomeni shaxsning manaviy dunyoqarashini shakilantirish va tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.
- ✓ Ushbu ta’sirlar zamonaviy jamiyat sharoitida, jumladan, kutubxona faoliyatining mafkuraviy yo’nalganligida, nashryotlar va bosmaxonalarning reklama ishlarida, arjima adabiyoti sanoatida, va boshqa sohalarda aks etadi.

Ommaviy san’at asarlari darhol va yorqin hissiy kechinmalarni uyg’otadi. Biroq, ommaviy san’atni past sifatli deb bo’lmaydi. U shunchaki boshqa vazifalarni bajaradi. Qolipli hikoya noaniqlikdan hayoliy, ammo baribir aniqlikka o’tishga yordam beradi. San’at olamidagi hayot o’zining yashirin sabablarini anglashni talab qilmaydi, ularni niqoblaydi yoki yashirin istaklarni tan olishga to’sqinlik qiluvchi to’siqlarni kuchaytiradi. Ommaviy janrlar ko’plab muammolarning hal etilmasligi va noaniqligini badiiy modelashtirish bilan almashtirib, mavjud ijtimoiy yo’nalishlar va qarashlarni mustahkamlaydi.

Elitar adabiyot esa ko’pincha ommaviy o’quvchi uchun ma’nosiz so’zlar to’plami bo’lib tuyuladi. Uning elitarligi ozchilik uchun mo’ljallanganligida emas, balki ko’pchilik uchun tushunarsizligidadir. Bu yerda muammo ikki yoqlama mazmunga ega. Chunki, ommaviy kitobxon avvalo estetik vazifalarni hal etuvchi asarlardan yuz o’girdi (ularni hal etmay turib, eng muhim hayotiy muammolarni chuqur o’rganib bo’lmasligini tushunmadi). Ikkinchi tomondan, “ilg’or” yozuvchi omma uchun tushunarli bo’lishni o’ziga or deb biladi. Bunday sharoitda hatto “haqiqiylik”ning ko’pchilik o’zini “oliy”ga daxldor, deb hisoblaydigan yashirin mezonni qaror topdi: qanchalik tushunarsiz bo’lsa, shunchalik mukammal hisoblanadi. Ko’pchilik uchun haqiqiy adabiyot, birinchidan, juda zerikarli (maktab xotiralaridan), ikkinchidan, mutlaqo hayotdan yiroq, tushunarsiz narsadir.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Абушенко В.Л. Чтение // Социология: энциклопедия / под ред. А.А.Грицанова. – Минск, 2003. – С. 47.
2. Ванеев А.Н. Проблемы философии библиотеки// Ванеев А.Н. Книга: Исследования и материалы. – М., 2000. – С.69-79.
3. Гудков Л. Кризис интеллигенции и массовое чтение. – 2012. – №11. – С.4.
4. Умаров А. Жамиятда мутолаа маданиятини шакллантириш ва кутубхоначилик муаммолари//“Фан, таълим маданият ва бизнес соҳаларида интернет ва

кутубхона-ахборот ресурсларидан фойдаланиш” мавзуидаги халқаро конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 4-10.

5. Холбеков А. Литературный метод в социологии или художественное произведение как источник социологического анализа (на примере драмы А.С.Пушкина “Борис Годунов”) // Журнал социальных исследований. – 2022. – №.1.

6. Аскарова В.Я. О понятии «читательская мода» // Психология чтения и проблемы типологии читателей: сб. науч. тр. / Ленингр. гос. ин-т культуры. – СПб., 2006. – С.143.

7. Бирюков П.Б. Чтение в жизни современных студентов: опыт культурологического исследования / П.Б.Бирюков. – М.: Диалог-МГУ, 1999. –104 с.

8. Бирюков П.Б. Чтение в жизни современных студентов: опыт культурологического исследования / П.Б.Бирюков. – М.: Диалог-МГУ, 1999. –245 с.

9. Бланшо М. Произведение и коммуникация // Пространство литературы / М.Бланшо. – М., 2002. – С. 18-19.

10. Бурде П. Правила искусства. Генезис и структура поля литературы =Les regies de Parts: Genese et structure du champ litteraire P.Burde. – Paris: Seuil. – С.82.

11. Вебер М. Наука как призвание и профессия // Избранные произведения /сост., общ. ред. и послесл. Ю.Н.Давыдова. – М., 1990. – С. 91.

12. Гудков Л. Литература и общество: введение в социологию литературы / Гудков Л., Дубин Б., Страда В. – М.: Рос. гос. гуманитар. ун-т, 1998. – 80 с.

13. Введение в социологию искусства / Е.В.Дуков, Б.С.Жидков, Ю.В.Осокин, К.Б.Соколов, Н.А.Хренов. – СПб., 2001.

14. Горомов Е.С. Природа художественного творчества. – М., 2002

15. Книга и чтение в зеркале социологии / Сост. В.Д.Стельмах. – М., 2004.

16. Кривцун О.А. Эстетика. – М., 2001.

17. Миронова М.В. Психология и социология чтения: Учеб. пособие для студ. 3 курса специальности 021500 «Издательское дело и редактирование». – Ульяновск, 2003. – 67 с.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000